



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'oyalar



O'ZBEK NASRIDA BADIYLIK VA UNING ESTETIK MOHIYATI

Ruzimbayeva D

Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada badiiylikning nazariy asoslari, uning adabiy asardagi estetik mohiyati hamda o'zbek nasridagi badiiy tafakkurning taraqqiy bosqichlari tahlil qilinadi. B. Sarimsoqov, U. To'ychiyev, M. Qo'shjonov kabi olimlarning qarashlari asosida badiiylikning mezonlari — mazmun va shakl uyg'unligi, haqqoniylig, originallik, til badiiyati hamda iste'dod tushunchalari izchil tahlil etilgan. Shuningdek, o'zbek hikoyachiligi misolida XX asr boshlaridan istiqlol davrigacha bo'lgan nasr poetikasining rivojlanish jarayoni ochib beriladi. A.Qodiriy, A.Qahhor, Oybek, G.G'ulom, Sh. Xolmirzayev, O'.Hoshimov, M. M. Do'st, T. Murod kabi yozuvchilarining ijodi misolida badiiylikning mohiyati, inson ruhiy olamini tasvirlashdagi yangicha yondashuvlar yoritiladi. Tadqiqotda mustaqillik davri nasrining asosiy tendensiyalari — insonni oliy qadriyat sifatida tasvirlash, ruhiy kechinmalar va estetik tafakkurning yangilanishi kabi jihatlar tahlil qilinadi. Maqola o'zbek adabiyotida badiiylikni belgilovchi estetik tamoyillarni ilmiy jihatdan asoslab, zamonaviy adabiy jarayonlar kontekstida talqin etadi.

Kalit so'zlar: badiiylik, estetik tafakkur, obrazlilik, iste'dod, nasr poetikasi, o'zbek hikoyachiligi, adabiy mezon, shakl va mazmun uyg'unligi, realizm, mustaqillik davri adabiyoti.

Adabiy asarning badiiy-estetik mohiyatini ilmiy asosda talqin etish masalasi o'zbek adabiyotshunosligida muhim mavzulardan biridir. Badiiylik mezonlarini aniqlash, uning mohiyatini chuqur tahlil qilish jarayonida professor B. Sarimsoqovning "Badiiylik asoslari va mezonlari" nomli asari alohida ahamiyatga ega. Olim badiiylikni miqdoriy emas, balki sifatiy hodisa sifatida talqin etib, uni har bir ijodkorning individual uslubi, ijodiy metodlari va davr estetik qarashlari bilan bog'liq holda ko'radi. Uning fikricha, badiiylik uchun yagona umumiyligi mezonlarni belgilash mushkul, chunki u adabiy turlar, janrlar va individual ijod miqyosida turlicha namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, u nisbiy bo'lsa-da, badiiylikning asosiy tamoyillarini sanab o'tadi: mazmun va shakl uyg'unligi, tasvir haqqoniyligi, originallik, estetik baho, til badiiyati hamda shartlilik darajasi.

Badiiylikning muhim xususiyatlaridan yana biri — iste'doddir. Chunki asarning go'zalligi va umrboqiyligi avvalo ijodkorning iqtidor darajasi bilan belgilanadi. A.Qodiriy, Oybek, Cho'lpon, Fitrat, A.Qahhor, G.G'ulom kabi yozuvchilarining asarlari zamon sinoviga bardosh berib kelayotganining sababi ham shu — ularning yuksak iste'dodidadir. Badiiylikning o'zak mohiyatini esa obrazlilik tashkil etadi. So'z orqali obraz yaratish — inson tafakkurining yuksak darajasini ifodalaydigan estetik jarayondir. Shu bois adabiy asarning qiymatini belgilashda, avvalo, uning mazmuniy chuqurligi va so'z orqali ifoda badiiyligiga e'tibor berish lozim.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'ÖYALAR



U.To'ychiyev o'z tadqiqotlarida badiiylikning eng muhim belgisi sifatida iste'dodni alohida ta'kidlab, uni mehnat, saviya, shaxsiyat va sharoit kabi omillar bilan bog'laydi. So'zning obrazga aylanishi oddiy hodisa emas — bu ijodiy tafakkurning, inson ruhining mahsulidir. Shu jihatdan, badiiylik — mazmun va shaklning uyg'un birligidir; mazmun uning mohiyatini, shakl esa ifoda darajasini belgilaydi.

So'nggi yillarda o'zbek adabiyotshunosligida badiiylik tamoyillari asosida asarlarni saralash va tahlil qilishga e'tibor kuchaydi. Badiiylik ijodkorning voqelikni o'ziga xos idrok etishi, syujet tanlashi, obraz yaratish mahorati, original fikrlash salohiyati bilan chambarchas bog'liq. Har bir asarning badiiy darajasi shu jihatlar orqali namoyon bo'ladi. Darhaqiqat, haqiqiy badiiy asar o'z zamonidan o'tib, abadiy estetik qadriyatga aylanadi.

Nasr poetikasi, xususan, o'zbek hikoyachiligi bu jarayonda alohida o'rin tutadi. XX asr boshlarida A.Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat kabi jadid yozuvchilarining hikoyalari ma'rifat, erkin fikr, xalq ruhiyati targ'ib etilgan bo'lsa, Oybek, A.Qahhor, G'.G'ulom ijodida xalq hayoti, mehnatkash insonlar taqdiri badiiy realizm asosida tasvirlandi. A.Qahhorning "O'g'ri", "Dahshat", "Bemor" hikoyalari, Oybekning "Fonarchi ota", G'.G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" asarlari xalq tilining tabiiyligi, obrazli ifoda va hayotiy tasvir kuchi bilan ajralib turadi.

Mazkur yozuvchilar maktabi o'zbek nasrida realistik badiiylikning poydevorini yaratdi. Ularning an'analarini Asqad Muxtor, Said Ahmad, P.Qodirov, O.Yoqubov singari adiblar davom ettirib, inson ruhiy olami, jamiyat va shaxs o'rtasidagi ziddiyatlarni chuqur tahlil etdilar. Keyingi avlod vakillari — Sh.Xolmirzayev, O'.Hoshimov, M.M.Do'st, T.Murod kabi yozuvchilar esa inson qalbi va Vatan tuyg'usini badiiy-estetik nuqtayi nazardan talqin etdilar.

Istiqlol davri o'zbek nasrida yangilanishlar davri bo'ldi. Adabiyot mafkuraviy bosimlardan xalos bo'lib, insonni oliy qadriyat sifatida tasvirlashga yo'naldirildi. Endilikda yozuvchilar inson ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari, o'zlikni anglash kabi masalalarni markazga chiqardilar. N.Rahimjonov ta'kidlaganidek, bu davr adabiyotida milliy iftixor, o'zlikni qadrash, millat birligini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-falsafiy konsepsiya yetakchi tamoyilga aylandi.

Shu bois mustaqillik davri hikoyachiligidagi shakl va mazmun jihatidan xilma-xillik, ramziy va falsafiy talqinlar, o'ziga xos uslubiy tajribalar kengaydi. Erkin A'zam, Xurshid Do'stmuhammad, Nazar Eshonqul, Isajon Sulton, Ulug'bek Hamdam kabi ijodkorlar asarlarida inson ruhiyatining nozik qatlamlari, hayot falsafasi, insoniy qadriyatlar yangicha badiiy yondashuv asosida yoritildi. Bu jarayon zamonaviy o'zbek nasrida badiiylik mezonlarining yangi bosqichda shakllanishini, milliy prozaning estetik tafakkur darajasi yanada yuksalganini ko'rsatadi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Улуғбек Ҳамдам. Рухни уйғотувчи сўз.-Тошкент: “Turon zamin ziyo”.2007. Б. 7.
2. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018. B.141.
3. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: “Sharq”, 2002. 38-bet.
4. Умурев X. Бадиий ижод асослари.–Тошкент: “Ўзбекистон”. 2001. Б. 41.
5. Умурев X. Бадиий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Тошкент: “Фан”. 1983;

